

MINTAQALAR RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Rasuljonov Abu Bakr Abdumalik o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: rasuljanovabubakir6@gmail.com

Tel: +998 97 252 63 36

Annotatsiya

Mazkur tezisdagi mintaqalar rivojlanishini boshqarishning zamonaviy mexanizmlari ilmiy va qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda institutsional-normativ, dasturiy-moliyaviy, innovatsion-ixtisoslashuv va raqamli monitoring mexanizmlarining mazmuni tizimlashtirildi. OECD, Yevropa Ittifoqi hamda O'zbekiston tajribasi qiyosiy o'rganildi. Natijalar hududiy o'ziga xoslikni hisobga olish, resurslarni maqsadli yo'naltirish va monitoringni kuchaytirish boshqaruv samaradorligini oshirganini ko'rsatdi. Taklif etilgan yondashuv hududiy rejalashtirishni takomillashtirish, investitsion ustuvorliklarni aniqlash va dalillarga asoslangan boshqaruv qarorlarini shakllantirish uchun ilmiy asos yaratdi hamda barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatladi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy rivojlanish, boshqaruv mexanizmi, hududiy siyosat, raqamli monitoring, aqlli ixtisoslashuv, strategik rejalashtirish, investitsiyalar.

Аннотация

В тезисе были научно проанализированы современные механизмы управления региональным развитием на основе сравнительного подхода. Были систематизированы институционально-нормативные, программно-финансовые, инновационно-специализированные механизмы и цифровой мониторинг. Сравнительно изучен опыт ОЭСР, Европейского союза и Узбекистана. Результаты показали, что учет территориальной специфики, целевое распределение ресурсов и усиление мониторинга способствовали повышению эффективности управления. Предложенный подход создал научную основу для совершенствования регионального планирования, определения инвестиционных приоритетов и формирования обоснованных управленческих решений на региональном уровне и поддержал устойчивое территориальное развитие.

Ключевые слова: региональное развитие, механизм управления, региональная политика, цифровой мониторинг, умная специализация, стратегическое планирование, инвестиции.

Abstract

This thesis scientifically analyzed modern mechanisms of regional development management using a comparative approach. The study systematized institutional-regulatory, programmatic-financial, innovation-specialization, and digital monitoring mechanisms. The experiences of the OECD, the European Union, and Uzbekistan were comparatively examined. The findings showed that considering territorial specificities, directing resources toward priority areas, and strengthening monitoring improved

management effectiveness. The proposed approach provided a scientific foundation for improving regional planning and supporting evidence-based managerial decisions.

Keywords: regional development, management mechanism, regional policy, digital monitoring, smart specialization, strategic planning, investment.

KIRISH

Mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasida hududlar rivojlanishini boshqarish uzoq davr mobaynida markazlashgan taqsimot mantig'i doirasida talqin etilgan. Zamonaviy konseptual qarash hududni bir jinsli ma'muriy birlik emas, balki o'ziga xos resurs bazasi, institutsional muhiti va inson kapitali salohiyatiga ega bo'lgan iqtisodiy makon sifatida tavsiflaydi. Joyga asoslangan yondashuvning nazariy o'zagi ham ana shu farqlanishdan kelib chiqadi: rivojlanish siyosati barcha hududlar uchun bir xil qolipda emas, balki har bir hududning qiyosiy ustunligi va o'sish nuqtalari asosida shakllantiriladi. Ushbu yondashuv 2023-yil iyun oyida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti Kengashi vazirlar darajasida qabul qilgan "Mintaqaviy rivojlanish siyosati to'g'risida"gi Tavsiyanomada xalqaro me'yoriy maqom oldi va hududiy siyosatni tartibga soluvchi birinchi xalqaro standart sifatida e'tirof etildi [1].

Boshqaruv mexanizmi nazariy nuqtadan maqsad, vosita, resurs va natija o'rtasidagi barqaror funksional bog'lanishlar tizimi sifatida talqin qilinadi. Hududiy darajada ushbu tizim uch qatlamdan tashkil topadi: strategik maqsadlarni belgilovchi me'yoriy qatlam, moliyaviy va tashkiliy resurslarni safarbar etuvchi instrumental qatlam hamda erishilgan natijalarni o'lchovchi analitik qatlam. Qatlamlar o'rtasidagi muvofiqlik darajasi boshqaruv samaradorligining asosiy nazariy mezon bo'lib xizmat qiladi, chunki me'yoriy maqsad moliyaviy resurs bilan ta'minlanmagan yoki o'lchov vositasiga ega bo'lmagan holatda amaliy natijaga aylanmaydi.

Xalqaro empirik kuzatuvlar ushbu nazariy mantiqni tasdiqlaydi. OECD ma'lumotlariga ko'ra, TL3 darajasidagi mintaqalarning yuqori 20 foizida jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot quyi 20 foizli guruhga nisbatan o'rtacha ikki barobar yuqori bo'lgan [2]. Hududlar o'rtasidagi bunday tabaqalanish rivojlanish siyosatining diagnostik apparatiga jiddiy talab qo'yadi va boshqaruvni faqat resurs taqsimoti emas, balki salohiyatni o'stirish jarayoni sifatida qurishni taqozo etadi. Ushbu vazifani amaliyotga o'tkazish maqsadida ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma davlat organlariga o'z siyosatining kuchli va zaif tomonlarini tizimli baholash hamda ilg'or tajribadan foydalanish imkonini beradi [3].

ASOSIY QISM

Mintaqalar rivojlanishini boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini funksional belgisiga ko'ra to'rt guruhga birlashtirish maqsadga muvofiq: institutsional-normativ, dasturiy-moliyaviy, innovatsion-ixtisoslashuv va raqamli monitoring mexanizmlari. Har bir guruh alohida vazifani bajaradi, biroq ularning uyg'unlashgan holda qo'llanishi hududiy siyosat natijadorligini sezilarli darajada oshiradi.

Institutsional-normativ mexanizm boshqaruvning huquqiy va tashkiliy asosini yaratadi. Xalqaro standart mintaqaviy siyosatning o'n ta o'zaro to'ldiruvchi ustunini belgilaydi - strategiya, hududiy miqyos, birgalikda ishlab chiqish, bardoshlilik,

ma'lumotlar, ko'p darajali boshqaruv, salohiyat va resurslar ular qatoriga kiradi [1]. Ushbu tuzilmaning ahamiyati vakolat va mas'uliyatning aniq taqsimlanishida namoyon bo'ladi: markaziy organ umumiy ustuvorlik va sifat mezonlarini belgilaydi, hududiy organ esa amalga oshirish yo'lini mahalliy sharoitdan kelib chiqib tanlaydi.

Dasturiy-moliyaviy mexanizm strategik maqsadni real investitsiya oqimiga aylantiradi. Yevropa Ittifoqining 2021-2027-yillarga mo'ljallangan kogeziya siyosati byudjeti 392 mlrd yevroni tashkil etib, Ittifoq umumiy byudjetining qariyb uchdan bir qismiga teng bo'ldi [5]. Mablag'lar NUTS-2 tizimidagi 240 ta mintaqani kam rivojlangan, o'tish bosqichidagi va yuqori rivojlangan toifalarga ajratish orqali taqsimlanadi; bandlik va o'sish dasturlarini to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirishga 369 mlrd yevro yo'naltirilgan [6]. Uzoq muddatli natijalar ijobiy dinamikaning ko'rsatadi: 2004-yildan buyon Ittifoqqa qo'shilgan a'zo davlatlarda jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi Ittifoq o'rtacha darajasining 52 foizidan qariyb 80 foiziga ko'tarilgan, ishsizlik darajasi esa o'rtacha 13 foizdan 4 foizga qadar pasaygan [4].

Innovatsion-ixtisoslashuv mexanizmi hududning tabiiy va texnologik ustunligini iqtisodiy o'sish manbaiga aylantirishga xizmat qiladi. Aqlli ixtisoslashuv joyga asoslangan yondashuv sifatida tavsiflanib, hududda mavjud aktivlar va o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan kelib chiqqan holda noyob rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashni nazarda tutadi [7]. Amaliy jihatdan u olti bosqichli metodika orqali joriy etiladi: innovatsion salohiyatni baholash, boshqaruv jarayonini tashkil etish, umumiy tasavvurni shakllantirish, ustuvorliklarni belgilash, siyosat majmuasi bilan ta'minlangan harakat rejasini ishlab chiqish hamda monitoring va baholashni yo'lga qo'yish [8].

O'zbekiston amaliyotida hududiy boshqaruvning zamonaviy modeli strategik rejalashtirish tizimi orqali shakllantirilmoqda. 2023-yil 11-sentabrda tasdiqlangan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi mamlakat taraqqiyotining o'rta muddatli ustuvor yo'nalishlari, maqsadlari va ularga erishish bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilab berdi [9].

1-jadval

Mintaqalar rivojlanishini boshqarishning zamonaviy mexanizmlari: institutsional asoslari va tasdiqlangan parametrlari¹

T/r	Mexanizm guruhi	Institutsional asosi va tasdiqlangan parametrlari	Manba
1	Institutsional-normativ mexanizm	OECD Kengashining 2023-yil iyunda qabul qilingan "Mintaqaviy rivojlanish siyosati to'g'risida"gi Tavsiyanomasi (OECD/LEGAL/0492) - hududiy siyosatni tartibga soluvchi birinchi xalqaro standart; strategiya, hududiy miqyos, birgalikda ishlab chiqish, bardoshlilik, ma'lumotlar, ko'p darajali boshqaruv, salohiyat va resurslar kabi o'zaro to'ldiruvchi o'n ustunni belgilaydi	[1]

¹ [1], [2], [5], [6], [8] va [10] manbalaridagi rasmiy ma'lumotlar asosida tuzildi.

T/r	Mexanizm guruhi	Institutsional asosi va tasdiqlangan parametrlari	Manba
2	Diagnostik-baholash mexanizmi	OECD Regional Outlook 2023 metodikasi: TL3 darajasidagi mintaqalarning yuqori 20 foizida jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM quyi 20 foizli guruhga nisbatan o'rtacha ikki barobar yuqori bo'lgani qayd etilgan; hududiy tafovutlarni yigirma yillik dinamikada o'lchash imkonini beradi	[2]
3	Dasturiy-moliyaviy mexanizm	Yevropa Ittifoqi kogeziya siyosatining 2021-2027-yillarga mo'ljallangan byudjeti 392 mlrd yevroni tashkil etadi va Ittifoq umumiy byudjetining qariyb uchdan bir qismiga teng	[5]
4	Hududiy tabaqalashtirish mexanizmi	NUTS-2 tizimidagi 240 ta mintaqqa kam rivojlangan, o'tish bosqichidagi va yuqori rivojlangan toifalarga ajratiladi; bandlik va o'sish dasturlarini to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirishga 369 mlrd yevro yo'naltirilgan	[6]
5	Innovatsion ixtisoslashuv mexanizmi	RIS3 metodikasi olti bosqichni qamrab oladi: innovatsion salohiyatni baholash, boshqaruvni tashkil etish, umumiy tasavvurni shakllantirish, ustuvorliklarni aniqlash, siyosat majmuasini belgilash hamda monitoring va baholash	[8]
6	Raqamli monitoring mexanizmi	O'zbekistonda samaradorlik ko'rsatkichlari ustidan nazorat Strategik rejalashtirish va rivojlanishning raqamli platformasi orqali yuritiladi; natijalar "yashil", "sariq" va "qizil" toifalar bo'yicha baholanadi	[10]

Keltirilgan mexanizmlarni qiyoslash ularning bir-birini funksional jihatdan to'ldirishini ko'rsatadi. Normativ standart boshqaruvning tashkiliy karkasini belgilaydi, moliyaviy mexanizm ushbu karkasni resurs bilan to'ldiradi, ixtisoslashuv metodikasi resurs oqimini eng yuqori qaytim beradigan yo'nalishga qaratadi, raqamli monitoring esa butun zanjir bo'ylab natijadorlikni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Ushbu to'rtlikning yaxlit tizim sifatida ishlashi hududiy siyosatning bashoratlanuvchanligini oshiradi va investorlar uchun barqaror kutilmalar muhitini yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy va qiyosiy tahlil mintaqalar rivojlanishini boshqarishning zamonaviy mexanizmlari yagona metodologik mantiqqa - hududning o'ziga xosligini tan olish, maqsadni o'lchanadigan ko'rsatkichga bog'lash va natijani muntazam kuzatib borish tamoyiliga tayanishini ko'rsatdi. Xalqaro standart va milliy strategik rejalashtirish tizimi o'rtasidagi konseptual yaqinlik O'zbekiston uchun ilg'or tajribani samarali o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Birinchidan, hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda xalqaro standartda belgilangan ustunlar tarkibiga muvofiq o'z-o'zini baholash jadvalini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunday jadval viloyat darajasidagi strategik hujjatlarning tayyorgarlik sifatini oldindan aniqlash va zaif bo'g'inlarni loyiha bosqichida bartaraf etish imkonini beradi.

Ikkinchidan, hududlarni rivojlanish darajasi bo'yicha toifalashning kogeziya siyosatida sinovdan o'tgan uch bosqichli modelini milliy sharoitga moslashtirish

tavsiya etiladi. Toifaga bog'liq moliyalashtirish koeffitsiyenti byudjet mablag'larining nisbatan kam rivojlangan tumanlarga yo'naltirilishini me'yoriy jihatdan mustahkamlaydi.

Uchinchi, har bir viloyat uchun aqlli ixtisoslashuv metodikasining olti bosqichi asosida ustuvor iqtisodiy yo'nalishlar xaritasini shakllantirish zarur. Xarita tadbirkorlik sub'ektlari, universitetlar va mahalliy hokimiyat vakillarining birgalikdagi muhokamasi natijasida tasdiqlansa, tanlangan ustuvorliklarning bozor talabiga muvofiqligi ta'minlanadi.

To'rtinchi, raqamli platformada to'planayotgan ma'lumotlar bazasini ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun ochiq analitik modulga ega bo'lgan holda kengaytirish taklif etiladi. Ochiq ma'lumot hududiy iqtisodiyot bo'yicha ekonometrik tadqiqotlar sifatini oshiradi va boshqaruv qarorlarining dalilga asoslanganlik darajasini kuchaytiradi.

Beshinchi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining strategik tahlil, loyiha boshqaruvi va natijadorlikni baholash bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish tizimini yo'lga qo'yish lozim. Boshqaruv salohiyatining o'sishi keltirilgan barcha mexanizmlarning amaliy qaytimini oshiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Recommendation of the Council on Regional Development Policy, OECD/LEGAL/0492. OECD, 2023. URL: <https://legalinstruments.oecd.org/en/instruments/OECD-LEGAL-0492>
2. OECD Regional Outlook 2023: The Longstanding Geography of Inequalities. OECD Publishing, Paris, 2023. URL: https://www.oecd.org/en/publications/oecd-regional-outlook-2023_92cd40a0-en.html
3. Implementation Toolkit: OECD Recommendation on Regional Development Policy. OECD, 2024. URL: <https://www.oecd.org/en/about/projects/implementing-the-oecd-recommendation-on-regional-development-policy-toolkit.html>
4. 9th Cohesion Report shows that Cohesion Policy continues to narrow the gaps in EU regions and Member States. European Commission, 27.03.2024. URL: https://ec.europa.eu/regional_policy/whats-new/newsroom/27-03-2024-9th-cohesion-report-shows-that-cohesion-policy-continues-to-narrow-the-gaps-in-eu-regions-and-member-states_en
5. Available budget of Cohesion Policy 2021-2027. European Commission, Directorate-General for Regional and Urban Policy. URL: https://ec.europa.eu/regional_policy/funding/available-budget_en
6. Cohesion policy 2021-2027 - budget in brief. Panorama, European Commission, 01.12.2021. URL: https://ec.europa.eu/regional_policy/en/newsroom/news/2021/12/12-01-2021-cohesion-policy-2021-2027-budget-in-brief
7. What is Smart Specialisation? Smart Specialisation Platform, Joint Research Centre, European Commission. URL: <https://s3platform.jrc.ec.europa.eu/what-is-smart-specialisation->

8. Guide on Research and Innovation Strategies for Smart Specialisation (RIS3 Guide). Smart Specialisation Platform, Joint Research Centre. URL: <https://s3platform.jrc.ec.europa.eu/s3-guide>

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston - 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/-6600413>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-YIL, 16- OKTABR, MAXSUS SON, IV-V-SHO'BALAR

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**